



BRITISH CONTROL IN THE NEAR EAST IN THE VIEW OF BO‘LAT SOLIYEV

Ubaydulla Quvvataliyev

Director

*Museum of Memory of Victims of Repression within the Structure of Termez State University
Termez, Uzbekistan*

E-mail: kuvvataliyev@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Bo‘lat Soliyev, Islamic World, World War I, British Influence, Arab Independence Movement, Political Instability, Egypt, Iraq, Turkey, Soviet Union

Received: 08.12.24

Accepted: 10.12.24

Published: 12.12.24

Abstract: The article analyzes Bo‘lat Soliyev’s article titled “In the Islamic World” published in the “Inqilob” journal in 1922. This article examines the political instability in the Arab world following World War I and the role of British influence. Bo‘lat Soliyev analyzes the struggle of Arabs for independence on the Arabian Peninsula, internal conflicts in Iraq, and the political situation in Egypt. The article also discusses the changes in British policy in response to the growing alliance between Turkey and the Soviet Union.

YAQIN SHARQDA BRITANIYA NAZORATI BO‘LAT SOLIYEV NIGOHIDA

Ubaydulla Quvvataliyev

direktor

*Termiz davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi
Termiz, O‘zbekiston*

E-mail: kuvvataliyev@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Bolat Soliyev, islom olami, Birinchi jahon urushi, Britaniya ta’siri, arab mustaqillik harakati, siyosiy beqarorlik, Misr, Iroq, Turkiya, Sovet Ittifoqi.

Annotatsiya: Maqolada Bo‘lat Soliyevning 1922-yilda “Inqilob” jurnalida chop etilgan “Islom dunyosida” nomli maqolasi tahlil qilinadi. Ushbu maqolada Birinchi jahon urushidan keyin arab dunyosidagi siyosiy notinchliklar va Britaniya ta’sirining roli ko‘rib chiqiladi. Bo‘lat Soliyev, Arabiston yarim orolida mustaqillik uchun kurashayotgan arablar, Iroqdagi ichki kurashlar va Misrdagi siyosiy vaziyatni tahlil qiladi. Maqola, shuningdek, Turkiya va Sovet

Ittifoqi o'rtasidagi ittifoqqa javoban Britaniya siyosatining o'zgarishini ham yoritadi.

БРИТАНСКИЙ НАДЗОР НА БЛИЖНЕМ ВОСТОКЕ В ВЗГЛЯДЕ БОЛАТА САЛИЕВА

Убайдулла Гувваталиев

директор

Мемориальный музей жертв репрессий в здании Термезского государственного университета

Термез, Узбекистан

E-mail: kuvvataliev@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Болат Солиев, исламский мир, Первая мировая война, британское влияние, арабское движение за независимость, политическая нестабильность, Египет, Ирак, Турция, Советский Союз.

Аннотация: В статье анализируется статья Болата Салиева "В исламском мире", опубликованная в журнале "Инкылаб" в 1922 году. В данной статье рассматриваются политические нестабильности в арабском мире после Первой мировой войны и роль влияния Британии. Болат Салиев анализирует борьбу арабов за независимость на Аравийском полуострове, внутренние конфликты в Ираке и политическую ситуацию в Египте. Статья также освещает изменения в политике Британии в ответ на союз между Турцией и Советским Союзом.

Kirish. Maqolada Bo'lat Soliyevning "Islom dunyosida" asarida 1922-yilda Britaniya ta'sirining yaqin Sharqdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu davrda, Birinchi jahon urushidan keyin, arab dunyosida siyosiy notinchlik va mustaqillik harakatlari kuchaygan edi. Bo'lat Soliyev, o'z asarida, Britaniya siyosatining arab mamlakatlaridagi ta'sirini va bu ta'sirning Iroq, Misr va boshqa mintaqalar uchun qanday oqibatlariga ega bo'lganini o'rganadi. Maqola, shuningdek, Turkiya va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi ittifoqning Britaniya siyosatiga ta'sirini ham yoritadi, bu esa o'sha davrda mintaqadagi geosiyosiy o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ushbu maqoani tayyorlashda Bo'lat Soliyev Yaqin Sharq hududlarida sodir bo'layotgan voqealarni bir qancha nufuzli davriy matbuot materiallarini kuzatish orqali tayyorlagani anglashiladi. Xususan Bo'lat Soliyev tomonidan Turkiyaning Yevropa mamlakatlariga qarshi kurashi haqidagi ma'lumotlarni AQShning nufuzli "THE TIMES" gazetasidan foydalangan holda yozganligini urg'ulaydi. Bu esa turkistonlik ziyolilar jahonning nufuzli axboriy nashrlarini kuzatib borganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy o'zbek tarixshunosligining asoschisi Bo'lat Soliyev O'zbekistonda zamonaviy tarix fani maktabi shakllanishi uchun juda ko'p sa'yi harakatlarni amalga oshirgan.[1] Biroq biz shu kungacha olimni tarixchi va pedagog sifatida ko'rar edik. Ammo keyingi izlanishlar bu kishini

nafaqat tarixchi balki kuchli siyosiy tahlilchi bo'lganligini ham ko'rsatmoqda Masalan Bo'lat Soliyevning 1922-yilda "Sardor" taxallusi bilan yozilgan "Inqilob" jurnalining ikkinchi sonida chop etilgan "Islom dunyosida" deb nomlangan maqolasida Birinchi jahon urushidan keyingi arab dunyosi va Misrdagi siyosiy notinchliklar atroflicha tahlil etilgan.[2]

Birinchi jahon urushidan keyin Usmonli imperiyasi halokatga uchradi. Imperiya parchalana boshladi, Arabiston yarim oroli, Hijoz, Iroq va Yaman kabi hududlardagi arablar mustaqillik uchun kurasha boshladilar.[3] Bo'lat Soliyev ushbu maqolada bu harakatlarning shakllanishida Britaniya ta'siri qanday muhim rol o'ynaganini o'rganadi. U o'z maqolasida Iroqdagi ichki kurashlarga va hokimiyat uchun kurashayotgan raqobatdosh guruhlariga ko'poq urg'u beradi. Mahalliy rahbarlar va xorijiy kuchlar, xususan, Angliya va Fransiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi. Misr tarixida Saad Zag'lul juda ahamiyatli shaxs ekanligi britaniyalik mustamlakachilar tomonidan ham e'tirof etilgan.[4] Maqolada, shuningdek, Saad Zag'lul Posho kabi liderlar Misr uchun suverenitetni, jumladan Nil va Sudan ustidan nazoratni talab qilib, Britaniyaga qarshi kuchli harakatga rahbarlik qilgan Misrdagi vaziyatni o'rganadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi asosan **tarixiy-tahliliy** va **kontent-tahlil** usullariga asoslangan. Maqola Bo'lat Soliyevning "Islom dunyosida" maqolasini asosiy manba sifatida qabul qilib, uni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada Bo'lat Soliyevning 1922-yilda "Inqilob" jurnalida chop etilgan "Islom dunyosida" maqolasi matni diqqat bilan o'rganilib, uning asosiy fikrlari, argumentlari, dalillari va til xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolaning yozilgan davrining tarixiy konteksti va Soliyevning shaxsiy dunyoqarashi ham hisobga olinadi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and Results).** Bo'lat Soliyevning 1922-yilda "Inqilob" jurnalida chop etilgan "Islom dunyosida" maqolasi Birinchi jahon urushidan keyingi Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyatni, xususan, Britaniya ta'sirining kuchayishini va arab dunyosidagi mustaqillik harakatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bo'lat Soliyevning "Islom dunyosida" maqolasi Birinchi jahon urushidan keyingi Yaqin Sharqdagi murakkab siyosiy vaziyatni chuqur va tafsilotli tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu maqola nafaqat o'sha davr tarixini o'rganish uchun, balki zamonaviy Yaqin Sharq muammolarini tushunish uchun ham muhim manba hisoblanadi. Bo'lat Soliyevning tahlilida ob'ektivlik va dalillarga asoslanish, shuningdek, uning o'z davrining dolzarb muammolariga e'tibor qaratishi maqolaning ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Bo'lat Soliyevning 1922-yilda yozilgan "Islom dunyosida" maqolasi, Birinchi jahon urushidan keyingi Yaqin Sharqda Britaniya ta'sirining murakkabligi va arab milliy ozodlik harakatining xilma-xilligini yoritib beradigan muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu maqolaning tahlili shuni ko'rsatdiki, Soliyev o'z davrining siyosiy voqealarini chuqur tahlil

qilishga qodir bo'lgan aqlli va ob'ektiv kuzatuvchi bo'lgan. Uning tahlili Britaniya siyosatining o'zgaruvchanligi, arab dunyosidagi mustaqillik harakatlarining xilma-xilligi va mintaqadagi siyosiy beqarorlikning sabablarini ochib beradi. Bo'lat Soliyevning maqolasi zamonaviy tarixshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. U Yaqin Sharqdagi tarixiy jarayonlarni tushunish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi va hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolgan mintaqaviy muammolar, shu jumladan, yirik davlatlarning aralashuvi, siyosiy beqarorlik va milliy ozodlik harakatlari haqidagi mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Takliflar:

- **Keyingi tadqiqotlar:** Bo'lat Soliyevning boshqa asarlarini o'rganish va uning Yaqin Sharq tarixiga qo'shgan hissasi to'liq baholanishi uchun qo'shimcha tadqiqotlar olib borish lozim. Uning maqolalarini zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish va uning xulosalari hozirgi kunda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish zarur.

- **Manbalarni to'plash:** Bo'lat Soliyevning shaxsiy arxivini va boshqa tegishli arxiv materiallarini topish va o'rganish orqali uning hayotini va ilmiy faoliyatini batafsilroq o'rganish imkoniyati yaratiladi.

- **Taqqoslash:** Bo'lat Soliyevning fikrlari va xulosalarini o'sha davrning boshqa taniqli tarixchilarining asarlari bilan taqqoslash orqali uning o'ziga xosligi va ahamiyati yanada aniqroq ko'rsatiladi.[5]

- **Ommalashtirish:** Bo'lat Soliyevning asarlarini kengroq o'quvchilar doirasiga yetkazish uchun ommalashtirilgan nashrlarni tayyorlash tavsiya etiladi. Bu, uning ilmiy merosi bilan kengroq tanishish imkonini beradi. [6]

Umuman olganda, Bo'lat Soliyevning "Islom dunyosida" maqolasi chuqur tahlil va kengroq tadqiqotlarni talab qiladigan muhim tarixiy manbadir. Uning asarlarini o'rganish va ommalashtirish O'zbekiston tarixshunosligi va Yaqin Sharq tarixiga qo'shgan hissani yanada boyitishga yordam beradi.

Bo'lat Soliyev Misrdagi tinch qarshilik harakatini Britaniyaning Suvaysh kanali kabi strategik hududlar ustidan nazoratni saqlab qolishga urinishlari bilan taqqoslaydi. Nihoyat, maqolada Turkiyadagi vaziyat va uning Yaqin Sharqqa ta'siri va milliy ozodlik harakatining kuchayishi va Turkiya va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi kuchayib borayotgan ittifoqqa javoban Britaniya siyosati mintaqaga nisbatan qanday o'zgarganligi qayd etilgan kengroq geosiyosiy kontekst muhokama qilinadi. Bo'lat Soliyev maqolada ushbu notinch davrda arab dunyosi taqdirini shakllantirgan mustaqillik uchun mahalliy kurashlar va kengroq imperialistik manfaatlarining kesishishiga tanqidiy nazar tashlaydi.

ISLOM DUNYOSIDA**Inqilob jurnali. 1922-yil 1-mart.**

Turkiya hukumati jahon mahorabasida zaiflangach uning qo‘l ostida yashab kelgan arablar o‘zlarining istiqloqlari uchun kurasha boshladilar. Xatto mahoraba tamom bo‘lmasdan burun Makkada amirlik e‘lon qilinganligi Turkiyadan ajralganligi ma‘lum bo‘lg‘on edi. Arablarning harakatga kelishiga bosh sabab, ularning xohishlaridan ko‘proq, Angliyaning ta‘siri ekanligi, ularning talqini bilan ishning yurganligi ma‘lum edi. Arabiston yarim oroli Angliya uchun Hindiston va Eron masalalarida g‘oyat ham bir o‘rin tutadir, hatto eski Turkiya vaqtida Arabistonning janub va g‘arb sohillari va bularg‘a qo‘shni bo‘lg‘on hududlar Angliya idorasida, taxti ta‘sirida edilar. Arabistong‘a boshi buzuq shayxlar, imomlar Angliya oqchasi bilan ish ko‘rub kelganlar.

Arabiston hech bir vaqt tinch bo‘lg‘ini yo‘qdur. Bugunda esa avvalgisidan tag‘in ham battar bir hol o‘zdiradilar. Hozirda Angliyaning ta‘siri: uning buyrug‘i bilan ish ko‘ruvchilik tag‘in ham kuchaygandir. Hijozning sobiq amiri Husayn butun Hijoz o‘lkasini o‘g‘ullari orasida etuv fikrida bo‘lg‘on, Suriyani Faysalga, Xalabni Zaydga, Iroqni Abdulloh ismli o‘g‘illariga beruv fikrida ekan. Lekin uning bu fikri chiqq‘on fransuzlar Faysalni Suriyadan, Zaydni Xalabdan quvib chiqarg‘onlar. Ammo Faysal fransuzlar idorasida bo‘lg‘on Suriyadan quvilg‘och, Hijozda Angliya tarafidan toj kiyib o‘zini Hijozning hukmdori etib e‘lon qilg‘on. Faysal taxtga o‘ltirishi munosabati bilan so‘zlagan nutqida “birinchi ishim saylov ishlarini vujudga chiqaruv, chaqiruv, Iroq bilan Angliya orasidag‘i kelishuvni tasdiq etuvdir. Majlis dinda erkinchilikni, ajnabiy toifasining amniyat taxsiyasini, ajnabiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarini qarag‘usidir. Bu xususda Angliya qumissari bilan alohida so‘zlashurman” degan. Amir Faysalni Iroq taxtiga chiqaruv uchun inglizlar Bag‘dodda arabcha gazeta chiqorg‘onlar.

Lekin Faysalning amirligini aholi qo‘llamag‘on, Mosul xalqi bilan Bag‘dodning bir qismi o‘z oralarida zo‘r o‘run tutg‘on bir shayxning bo‘lishini talab etganlar. Inglizlarga qarshi eng qattiq kurashuvchi basraliklar yerlik arablardan birining bo‘lishini qo‘llag‘onlar. Xalqning uchinchi bir qismi hoshimiylar oilasidan birining hukmdor bo‘lishi tarafinda bo‘lg‘onlar. Xalqning uchinchi bir qismi hoshimiylar oilasidan birining hukmdor bo‘lishi tarafinda bo‘lg‘onlar. Najafda iroqlik arablar tarafidan yana bir hukumat yasalg‘on. Buning boshida Muhammad Badriddin ismli kishidir. Bular Angliya bilan juda qattig‘ urushib yotibdirilar. Yamanda esa imom Yaxyo va imom Idrislar mustaqil bir idora ta‘sis etganlar. Yamanning katta qismi imom Yaxyo qo‘lida bo‘lib, Turkiyaning manfaatini himoya qiladir, uning tarafidan Angliya bilan urushib yotibdir. Imom Idris esa Angliya tarafdori va uning ishorasi bilan amal qiluvchi kishidir. Hosli arablar orasida turli mustaqil idoralar tashkil etilgan. Yama, Hijoz, Iroq, Suriyada mazkur idoralardan xarj, zo‘r kelishmovchiliklar davom etib yotibdir. Misrda esa ahvol yana yomon bir ahvoldadir. Angliya

tarafdori bo'lg'on Adli Yakin Posho bir hay'atning boshida Londonga borib qaytdi. Misr xalqiga suyunchilik bir narsada bermayturg'on loyahasini ko'tarib Londonda bir oz vaqt bo'ldi. Adli Yakin Posho va uning tarafdorlarining talabi ushbudan iborat:

“Angliya askarlarni yolg'uz Port Said va Suvaysh kanalining faqat sharqiy qismini ishg'ol etar. Devon umumiya uchun bir ingliz konturoli tayin etilur. Misr ajnabiy mamlakatlarga siyosiy safarotlar yubormoq haqqiga molik bo'lib, xorij bilan faqat savdo aloqalarida bo'lmoq sharti bilan, ahd etulgusi. Boshqa masalalar bo'yicha Buyuk Britaniya bilan kengash etar. Iskandariya shahrida bir ingliz idorasi bo'lur, unda bir nazorat quti bo'lar, inglizlar Misr, Sudandagi hozirg'i vaziyatni muhofaza etar, Misr suvlaridan foydalanuv yo'llari ta'min etilur.”

Misrdagi Angliyaga qarshi harakatning boshida Saad Zag'lul Posho ismli bir kishi turadir. Bu kishi misrliklar tarafidan tanlang'on, Misrning huquqin mudofaa qilishda eng zo'r mujohidlardandir. Zag'lul Poshoning talablari tubandagi moddalardan iborat ekanligi anglashiladir: “Misr ustidagi Angliya himoyasi tamom bitirilur, Misr ajnabiy davlatlar bilan savdo va iqtisodiy kelishuvlar ahd etishga haqli bo'lur, Nil va Sudan masalasida Misr o'z huquqini muhofaza etar. Angliya vakolatxonasi ma'murligiga tayin qilinadurg'on ingliz qumissarlig'i kontrol yoki taftish nomi berilmasdan “Mashvar” (maslahatchi) nomi berilur, bu vakolatxona tugatilishi bilan mazkur qumissarning ham ishi bitganga hisob qilinur, bu asos shart etilub qabul etilur, adliya nazoratida bir ingliz ma'murining bo'luvi haqidag'i modda bilan qayd va shart etilur, Misrda bo'laturg'on ingliz askarining qarorgohi uchun Suvaysh kanalining sharqida bir o'run ta'sis qilinur, Misr bilan Angliya orasida ahd etiladurg'on shartnoma tayin va tajdid etilur.”

Adli Posho Misrdag'i Angliya kishilari bilan so'zlashgandan keyin, bir hay'at bilan Londong'a borlon edi, lekin maqsadiga erisha olmadi. Lord Kerzun mazkur loyihadagi talablarni ko'p sanadi, Misrg'a qaytqoch xalq tarafidan g'oyat zo'r nafrat bilan qarshi olindi. Londong'a ketgan vaqida ham Misr xalqi juda zo'r tahqiromuz so'zlar etub qolg'onlar edi. Hozirda Adli Posho iste'fo qilishga majbur bo'lg'on. Yangi kabinet ta'sis etuvni ba'zi bir mo'tabar odamlarga havola qilg'onlar ekan birisi ham qabul etilmagan. Tavfiq Nasim Posho ismli shaxsning qabul etishishi kutiladir. Turkiyaning ahvoli bir qadar tuzala boshlog'ondek ko'rinadir. Siqoriya muzofotida yunonlarni qat'iy suratda yengadilar. Hindistondagi muxolifat harakati Angliyaning Turkiyaga munosabatini bir qadar o'zgargandek ko'rinadir.

Idoramizga kelgan xorijiy matbuotda “Times”dan ko'chirilgan bir maqola uchradi: “Anadulidag'i milliyat harakatini bostirmoq uchun badbaxt yunonlarni tashviq etuv siyosati maqsadg'a erishuvda muvaffaqiyatsizlik bilan qiling'on balki, ham kelishmovchiliklar tug'dirg'onlar. Hindistonda musulmonlarining maorif boshlug'i bo'lg'on Og'axon janoblari bu nizoning mohiyatini “Times”da ochib berdilar. Turklarga qarshi bir muvaffaqiyat yohud yunonlar

uchun bir amniyat bera olmaytug'on, uning ustiga ham o'z imperaturliqlarini g'oyat zo'r mushkullika uchratarg'on bu siyosatni ta'qib etuvni qabul etmaymiz.

Turklar bilan doimiy bir sulh yasash ham Angliyaning va ham yunonlarning zarur ishlaridandur. Yunonlar Anadolidan chiqmasdan, doimiy bir sulhning bo'lmaslig'iga ishonamiz. Yunonlarni Anadolining ichiga tomon kirivuga tashviq etuv bilan yunonlarga ko'p nochorliklar ishladik. Endi yunonlar tarafidan talab etilgusi og'ir talablarga yordamlashuv bilan ishlagan nochorliqni tuzata olmaymiz. Bu nochor vaziyatdan qutultirish yunonlarga xiyonat etuv emas balki, ularning manfaatlarin tayin etuvdir." Ikkinchi bir o'rinda aytadir: "Turkiyaning sho'rolar Rusiyasi bilan yaqinlashuviga, ikkisinin ittifoq yasavug'a biz sababchi bo'ldiq. Bu to'g'rida o'zimizni ayblashga tegishmiz."

Angliya imperalistlari bir oz o'ynay boshlog'onlar, islom dunyosidagi harakatlar, mazlumlar dunyosining sho'rolar Rusiyasi bilan ittifoqi Angliyani yaxshi titratgani ko'rinadir.

Sardor.

Inqilob jurnali. 1922-yil 1-mart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quvvataliyev.U. Jonkuyar jadid tarixchisi. // Jadid gazetasi. 2024-yil 2-avgust
2. Sardor. Islom dunyosida. // Inqilob (انقلاب) Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvida. 1922 yil, 1-mart
3. Pan Arabism and apromise. // Palestine & Transjordan: A Weekly Review of Political, Economic, Legal & Social Affairs in Palestine, Transjordan & Other Parts of the Arab World. Arab Publications Company, 1937. P – 9.
4. Elinor Burns. British Imperialism in Egypt. London: Labour Research Department, 1928. – 72 P.
5. Tuzuk-i-Temuri. Published by Fadl al-Haqq Bombay, 1908 – P 328.
6. Ghiyas al-Din Khvand Mir. Habibu's-siyar. Department of Near Eastern Languages and Civilizations, Harvard University, 1994 – P 697.